**O’ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O’RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI**

**TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI BUXORO FILIALI**

**«QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH» FAKULTETI**

**«TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH» KAFEDRASI**

“5311000 –Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo’jaligida)” yo’nalishi bo’yicha

# “ARTEZIAN SKVAJINA NASOSLARINI BOSHQARISH VA AVTOMATLASHTIRISH MASALALARI” mavzusidagi

# BITIRUV MALAKAVIY ISH


**Bajardi:** **4/1 TJ va ICHAB guruhi talabasi Uzoqov Abdullo**

**Rahbar:** **assistent Hakimova S.SH.**


Himoyaga ruxsat etildi
“____”____________2017 y.

«TJ va IChAB» kafedrasi mudiri v.b.: __________ Usmonov J.I.

**BUXORO – 2018 Y.**

TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ XO’JALIGINI MEXANIZATSIYALASH MUHANDISLARI INSTITUTI
BUXORO FILIALI

«SUV XO’JALIGINI AVTOMATLASHTIRISH VA MEXANIZATSIYALASH» FAKULTETI
« TEXNOLOGIK JARAYONLAR VA ISHLAB CHIQARISHNI AVTOMATLASHTIRISH VA BOSHQARISH » KAFEDRASI
5311000 – Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish (suv xo’jaligida) yo’nalishi bo’yicha

4/1 TJ va ICHAB guruhi

«Tasdiqlayman»
Kafedra mudiri
«____» ____________ 2017 y.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba Uzoqov Abdullo
Bitiruv malakaviy ishining mavzusi: “Artezian skvajina nasoslarini boshqarish va avtomatlashtirish masalalari”

1. Kafedra majlisida «____» _________ 2017 y. tasdiqlangan (bayon №____).
2. Bitiruv malakaviy ishini topshirish muddati: ________________
3. Bitiruv malakaviy ishni bajarish uchun zarur ma’lumotlar: “Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish”, “Gidromeliorativ tizimlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish”, “Avtomatik boshqarish nazariyasi”, “Suv xo’jaligida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari”, “Avtomatik tizimlar va elektr vositalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi”, “Avtomatik tizimlarni loyihalash”, “Sug’orish tizimlarini avtomatlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi” fanlar asoslari.
4. Hisoblash-tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqilgan masalalar ro’yxati): kirish, masalaning qo’yilishi, ish maqsadi, adabiyotlar tahlili, texnologik jarayonning tavsifi, jarayonni avtomatlashtirishning funksional sxemasini ishlab chiqish, nazorat-o’lchov asboblarini va ijrochi mexanizmlarni tanlash, rostlash konturini sozlash va uni tadqiqot qilish, boshqarish tizimining

strukturali sxemasini ishlab chiqish va uning dinamik xarakteristikalarini aniqlash, ABTni joriy etish bo'yicha iqtisodiy samaradorlikni hisoblash, mehnat muhofazasi va ekologiya masalalarini ishlab chiqish, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar va saytlar ro'yxati, ilova.

| № | Bo'lim mavzusi | Maslahatchi o'qituvchi | Imzo | |
|---|---|---|---|---|
| | | | topshiriq berildi | topshiriq bajarildi |
| 1 | Asosiy qism | Ass. Hakimova S.Sh. | | |
| 2 | Hayot faoliyati xavfsizligi | | | |

6. Bitiruv ishini bajarish rejasi:

| № | Bitiruv ishi bosqichlarining nomi | Bajarish muddati, sana | Tekshiruvdan o'tganlik belgisi |
|---|---|---|---|
| 1 | Mavzu bilan tanishish, adabiyotlar ustida ishlash | | |
| 2 | Bitiruv malakaviy ishining I - bobi ustida ishlash | | |
| 3 | Bitiruv malakaviy ishining II - bobi ustida ishlash | | |
| 4 | Bitiruv malakaviy ishining III - bobi ustida ishlash | | |
| 5 | «Hayot faoliyati xavfsizligi» bobi ustida ishlash | | |
| 6 | Bitiruv ishini rasmiylashtirish | | |
| 7 | Bitiruv ishi himoyasiga tayyorlanish | | |
| 8 | Bitiruv malakaviy ishini himoya qilish | | |

Bitiruv ishi rahbari: ___________________ass. Hakimova S.SH.

Topshiriqni bajarishga oldim:_______________________________________

Topshiriq berilgan sana: «____» __________ 2017 yil

# ANNOTATSIYA

Ushbu bitiruv malakaviy ishi artezian skvajina nasoslarini boshqarish va avtomatlashtirish masalalariga bag'ishlangan. Bitiruv malakaviy ishining tushuntirish xati quyidagi qismlardan iborat: kirish, nazariy qism (I- bob), asosiy qism (II- bob), hayot faoliyati xavfsizligi qismi (III- bob), iqtisodiy qism (IV-bob), xulosa, adabiyotlar.

Kirishda qishloq xo'jaligida suv ta'minotini avtomatlashtirish bugungi kunda davlatimizda muhimligi va bunga doir yechilayotgan muammolar ko'rib chiqilgan va mavzuning dolzarbligi, masalaning qo'yilishi, bitiruv malakaviy ishining maqsadi, masalalari, qo'llanayotgan usullar, ishning amaliy ahamiyati keltirilgan.

I-bobda qishloq xo'jaligida suv ta'minoti va uni yaxshilash tadbirlar turlari, sug'orish usullari haqida umumiy ma'lumotlar, artezian skvajina nasoslarini qo'llash shartlari hamda afzalliklari, ularni boshqarish va avtomatlashtirish masalalari keltirilgan.

II-bobda boshqaruv ob'yekti haqida ma'lumotlar, fermer xo'jaligining sug'orish tarmoqlari, sug'orish usuli va texnikasini tanlash, fermer xo'jaligining suv ta'minotini ABTni ishlab chiqish, nasos agregatlarini avtomatik boshqaruv tizimlarida qo'llanuvchi texnik vositalarini tanlash, artezian skvajinalarini avtomatlashtirishning funksional-texnologik sxemasi, loyihalangan tizimning turg'unligini aniqlash masalalari ishlab chiqilgan.

III-bobning nomi: «Hayot faoliyati xavfsizligi». Tushuntirish xatining shu qismida nasos stansiyalarda hayot faoliyat xavfsizligi masalalari, elektr xavfsizligi, yong'in xavfsizligi, zaxarlanganganda birinchi yordam fuqaro muxofazasi va tabiatni muhofaza qilish savollari ko'rib chiqilgan.

IV-bobda iqtisodiy samaradorlik hisoblangan va xulosa qilingan.

MUNDARIJA:

**KIRISH**……………………………………………………………...

**I - BOB. NAZARIY QISM**

1.1.Sug'orish tizimlarning tasnifi va asosiy elementlari …………………..

1.2. Sug'orish uchun suv manbalari.......................................................

1.3.Yer osti suvlari bilan sug'orish…………………………………

1.4. Zax qochirishga bo'lgan zaruriyat...............................................

1.5.Qishloq xo'jaligi ekinlarining suv rejimiga talabi…………………

1.6. Artezian skvajinalardan foydalanish…………………………………

1.7. Artezian skvajinalarining ishlash rejimi………………………………

1.8. Elektrodvigateli suvga cho'ktiriladigan quduqli nasoslar………………

**II–BOB. ASOSIY QISM**

2.1. Zamonaviy ETSV rusumli quduqqa mo'ljallangan elektr nasos agregatlari.

2.2. ETSV nasoslari uchun СУЗ Losman + boshqaruv stantsiyasi……..

2.3. Yer osti suvlar sathining avtonomli monitoringi…………………….

2.4. ABTning dinamik xarakteristikalarini aniqlash

**III - BOB. HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI**

**3**.1. ETSV rusumli quduqqa mo'ljallangan elektr nasoslarning agregati……..

3.2. ETSV nasoslarning elektr motorini ta'mirlashda mexnat muhofazasi talablari……………………………………………………………………..

3.3. Xavfsizlik choralari bo'yicha ko'rsatmalar …………………………….

**IV-BOB. IQTISODIY QISM**

**XULOSA**

**ADABIYOTLAR**

**ILOVA**

## KIRISH

Xalq xo'jaligining barcha sohalarida izchil va keng qamrovli islohotlarni amalga oshirayotgan yosh mustaqil davlatimizda aholi va ishlab chiqarishni suv bilan ta'minlash hamda shu bilan birga mavjud suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu jumladan aholini, ayniqsa qishloq aholisini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash yo'lida ham katta ishlar amalga oshirilmoqda. Tabiiy ravishda suv ta'minoti tizimlari kengayib, texnik jihatdan takomillashib, shu bilan birga murakkablashib bormoqda. Yer osti va yer usti manbalaridan suv oluvchi inshootlar yiriklanib, suv tashish masofalari uzoqlashib, suv tozalash jarayonlari hamda inshootlari vujudga kelgan ekologik vaziyat va sharoitlar ta'sirida murakkablashib bormoqda.

Bunday sharoitlarda suv ta'minoti tizimlarini loyihalash, qurish va ishlatish texnologiyalarini takomillashtirish va ularning ish natijalarini talab darajasida bo'lishiga yerishish, xalqning farovonligi yo'lida ulkan ishlarni amalga oshirayotgan bizning mamlakatimiz uchun ham o'ta dolzarb va kun tartibining birinchi navbatida turgan vazifalardandir.

Suvsiz hayot bo'lishi mumkin emas. Suvni toza saqlashga, undan oqilona foydalanishga alohida e'tibor byeriladi. Har doim odamlarni suv bilan ta'minlash masalasi eng muhim muammolaridan bir bo'lib kelgan.

Suv resurslaridan samarali foydalanish va ularni muhofaza qilish, umuman suv resurslari bilan bog'liq barcha munosabatlar O'zbekiston Respublikasining "Suv va suvdan foydalanish", to'g'risidagi 1993 yil 6 mayda qabul qilingan va 2009 yilda qator o'zgartirishlar kiritilgan qonunida o'z aksini topdi.

Qonunning 3-moddasida: "Suv O'zbekiston Respublikasining davlat mulki – umummilliy boylik hisoblanadi, suvdan oqilona foydalanish lozim bo'lib, u davlat tomonidan qo'riqlanadi", deb e'tirof etilgan.

Shu qonunga asosan O'zbekiston Respublikasining yagona davlat suv fondi: daryolar, ko'llar, suv omborlari, boshqa yyer usti xavzalari va suv manbalari suvlaridan, yyer osti suvlari va muzliklaridan iboratdir. Davlatlararo daryolar –

Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon daryosi, Orol dengizi va boshqa suvlardan foydalanish huquqi davlatlararo bitimlarda belgilab byeriladi.

Suv ta’minoti manbalari sifatida yer usti va yer osti suvlaridan foydalaniladi.

1. Yer usti manbalari — daryolar, kanallar, soylar, ko’llar, suv omborlari.
2. Yer osti suv manbalari — grunt suvlari, yer osti suvlari oqimlari, artezian suvlar, buloqlar.

Yer osti suvlari O’zbekistonning muhim tabiiy boyligidir, Respublikamiz hududida ularning katta zahirasi mavjud. Agar ulardan to’la foydalanilsa, sekundiga 450-500 $m^3$ muv olish mumkin. Respublikamizda yer osti suvlarning tarqalish joyini geologik tuzilishi, relefi, iqlimi xususiyatlari va daryolarga bog’liq. Yer osti suv zahiralari ko’proq O’zbekistonning tekislik qismida va tog’ vodiylarida joylashgan. Yer osti suvlari grunt (sizot suvlari), artezian (qatlamlar orasidagi) suvlardan va mineral suvlardan iborat.

**Mavzuning dolzarbligi**

Artezian skvajinalardan har yili o’rtacha hisobda 1000 mln. $m^3$ suvlari chiqariladi. Ulardan foydalanish ximatini yaxshi tashkil etilishi ularni ishonchli va uzoq vaqt ishlashini kafolatidir. Shu sababli ushbu quduqlarni avtomatlashtirish davr talabi hisoblanadi. Bu holat sug’orish maydonlardagi meliorativ tadbirlarni samaradorligini oshiradi.

**Ishning maqsadi**

Meliorativ yerlarda sug’orish uchun artezian skvajinalardan nasos yordamida suvni ko’tarish va ushbu nasoslar ish rejimini nazorat qilish hamda avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimini ishlab chiqish

**Ishning maqsadiga erishish uchun quyidagi masalalar yechilishi kerak:**

- Meliorativ yerlarni sug’orish uchun artezian skvajinalardan foydalanish, ularda qo’llaniladigan nasoslarni tanlash, ish rejimlarni nazorat qilish hamda avtomatlashtirish masalasi bo’yicha zarur adabiyotlar, ma’lumotlar, internetdan materiallar tahlilini bajarish;
- Meliorativ yerlarni sug’orishda ishlatiladigan artezian skvajina nasoslari turlari haqida zarur ma’lumotlar to’plash va ularni tahlil qilish;

- Artezian skvajina nasoslarini boshqarish va avtomatlashtirish texnologik jarayonning tavsifi;
- Berilgan masalaning yechish yo'llarining tahlilini bajarish;
- Artezian skvajina nasoslarini nazorat qilish avtomatik tizimi strukturasi va elementlari;
- Ishlab chiqilgan avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimining dinamik ko'rsatkichlar va turg'unlik mezonlarini aniqash;
- Avtomatlashtirilgan jarayonining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari;
- Hayot faoliyati xavfsizligi muammolari.

**Foydalanilgan uslublar:**

Bitiruv malakaviy ishida qo'yilgan masalalarni hal etishda: "Gidromeliorativ tizimlardan foydalanish", "Gidromeliorativ tizimlarda texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish", "Avtomatik boshqarish nazariyasi", "Suv xo'jaligida texnologik jarayonlarni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari", "Avtomatik tizimlar va elektr vositalarning montaji, sozlash va ekspluatatsiyasi", "Avtomatik tizimlarni loyihalash", "Sug'orish tizimlarini avtomatlashtirish va uning iqtisodiy samaradorligi" fanlarning nazariy ma'lumotlaridan foydalanildi.

**Ishning amaliy ahamiyati:**

Bitiruv Malakaviy ishning amaliy ahamiyati shundan iboratki, "Texnologik jarayonlar va ishlab chiqarishni avtomatlashtirish va boshqarish", "Gidrotexnik inshootlar va nasos stanstiyalaridan foydalanish" ta'lim yo'nalishida o'qiydigan talabalar o'z bilim va malakalarini oshirish maqsadida mazkur ish yuzasidan to'plangan barcha ma'lumotlar va hisob-kitob ishlari materiallaridan samarali foydalanishlari mumkin.

# I-BOB. NAZARIY QISM

## *1.1 Sug'orish tizimlarining tasnifi va asosiy elementlari.*

Sug'orish tizimlari, asosan, qurg'oqchil maydonlarda loyihalanib, bu tizimdagi inshootlar ma'lum tabiiy namlik etishmagan sharoitda qishloq xo'jaligi madaniy ekinlardan barqaror va yuqori hosil olish uchun zarur bo'lgan hajmda va talab qilingan muddatlarda sug'orish maydonlariga suv berishni, undan zax va tashlama suvlarni o'z vaqtida olib chiqib ketishni hamda tuproqning maqbul suv-havo, suv-tuz rejimlarini ta'minlashi kerak.

*Sug'orish tizimi tarkibi*ga suv omborlari, tabiiy yoki sun'iy suv manbalaridagi suv olish va baliq himoyalovchi inshootlar, tindirgichlar, nasos stantsiyalar, sug'oruvchi, zax qochiruvchi va tashlama tarmoqlar, ulardagi inshootlar, himoya tarmoqlari, tuproq erroziyasiga qarshi inshootlar, yerlarning meliorativ holatini nazorat qiluvchi boshqarish va avtomatlashtirish, elektrlashtirish va aloqa qurilmalari, xizmatchi hodimlar uchun qurilgan ishlab chiqarish va istiqomat binolari, foydalanuvchi yo'llar, himoya daraxtlari kiradi.

Zamonaviy sug'orish tizimi suv olib keluvchi va olib ketuvchi tarmoqlarni umumlashtirgan holda sug'orish maydonlarining suv manbasi va suv qabul qilgichlar bilan bog'lanishini ta'minlovchi kanallar va quvurlar tizimini o'z ichiga oladi. Barcha sug'orish, tashlama va zax qochirish tarmoqlari suvni o'lchaydigan, boshqaradigan, tizimning me'yorda ishlashi uchun zarur bo'lgan inshoot va qurilmalar bilan jihozlanadi.

Sug'orish tizimi tarkibi, ularning rejada joylashishi va konsturkstiyalari sug'orish maydonining tabiiy-xo'jalik sharoitlari, suv manbasining xususiyatlari, sug'orish maydonining ko'lami va shakliga bog'liq bo'ladi va har bir xususiy holat uchun ma'lum o'zgarishlar kiritilishi mumkin.

Sug'orish tizimini loyihalashning asosiy sxemasi joyining geomorfologik sharoitidan kelib chiqib belgilanadi.

Sug'orish tizimining suv o'tkazuvchi tamroqlari ochiq, yopiq va qurama ko'rinishlarida bo'lishi mumkin.

Geomorfologik sharoitlar bo'yicha sug'orish tizimining joylashishi tog'li, tog'oldi, vodiy, tekislik va delta tiplarda tasniflanadi. urilish va foydalanish nuqtai nazaridan eng murakkab sharoit delta tipdagi tizimda kuzatiladi. Buxoro viloyati delta tipi tizimiga kiradi. Chunki, bu holatda yer relefi juda noqulay bo'lib, minerallashgan sizot suvlarning yer sathiga yaqin joylashganligi zovur tarmoqlarini qurishni taqozo qiladi.

Yer va suv umummilliy boyligimiz hisoblanganligi tufayli ham tabiiy resurslaridan unumli va oqilona foydalanishga e'tibor qaratilishi kerak. Shu nuqtai nazardan o'zlashtiriladigan maydondagi sug'orish tarmoqlarining joylashuvi, chegaralari va konstrukstiyasi shu maydondan to'liq va samarali foydalanishni belgilaydi. Zamonaviy sug'orish tizimi takomillashgan sug'orish usullari va texnikasini qo'llash imkonini berishi kerak va tizimdagi barcha qismlar hamda inshootlar yagona boshqaruv tizimi orqali boshqarilib, qishloq xo'jaligi ekinlarining normal rivojlanishini iqlim o'zgarishlarini hisobga olgan holda ta'minlab berishi kerak.

### ***1.2** Sug'orish uchun suv manbalari**.*

***Suv manbalarining turlari va ularga qo'yiladigan talablar***.

Suv manbasi sug'orish tizimining asosiy qismi hisoblanib, ularning xususiyatlari sug'orish tizimining ishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Hozirgi kunda quyidagi suv manbalaridan foydalaniladi:

1. Daryo suv manbalari (O'zbekistonda sug'orish tizimlari suv manbasining 90% ini tashkil qiladi).
2. Suv havzalari (tabiiy ko'llar, suniy suv omborlari).
3. Mahalliy suv oqova manbalari (yomg'ir va qor suvlari).
4. Yer osti suvlari (sizot va artezian suvlari).
5. Chiqindi suv manbalari (kundalik turmushdan foydalanilgan chiqindi suvlar).
6. Ishlov berilgan dengiz suvlari.

Sug'orish uchun ishlatiladigan suv manbalari o'zlarining quyidagi xossalariga asosan qabul qilinadi va ular orqali manbaning sug'orish qobiliyatlari belgilanadi:

1. suvning sarf qiymati: $Q = f(t)$.

2. suvning hajm qiymati: $V = f(t)$.

3. suvning sifat tarkibi: $\lambda, t^0 c, p$

4. suvning sath qiymatlari: $H = f(t)$.

Suvning sath qiymatidan suv manbasining sug'orilishlik qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega = \frac{Q_{cal} * \eta}{q_{max}} \qquad (1)$$

bu yerda $Q_{cal}$ - qabul qilingan hisobiy suv sarf qiymati, л/с; sug'orish tizimining FIK; $q_{max-}$gidromodul grafigining salmoqlashtirilgan ordinata qiymati, л/с-ga .

Suv hajm qiymatidan suv manbasining sug'orishlik qobiliyati quyidagicha aniqlanadi:

$$\omega = \frac{V_{cal * \eta}}{\bar{M}}, \qquad (2)$$

bu yerda $V_{cal}$ –qabul qilingan hisobiy suv hajm qiymati, $m^3$; M-sug'oriladigan ekinlarning o'rtalashtirilgan mavsumiy sug'orish me'yori, $m^3$/c:

$$\bar{M} = \frac{M_1 \cdot a_1 + M_2 \cdot a_2 + \cdots + M_n \cdot a_n}{100}, M^3/_c \qquad (3)$$

bu yerda $\alpha$-ekin maydonlarning foizi, $(a_1 + a_2 + \ \ldots + a_n = 100\%)$.

Suv manbasining sug'orishlik qobiliyati suv manbasining suv rejimini boshqarish orqali, ya'ni suv sarfini va miqdorini ko'paytirish orqali amalga oshiriladi. Bunda qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orish rejimini o'zgartirish ($q_{max}$ va M qiymatlarini kamaytirish), ya'ni kam suv istemolli ekinlarni

yetishtirishni rejalashtirish, sug'orish tizimining FIK qiymatini oshirish orqali bajarish mumkin.

Suv manbasini haqiqiy va hisobiy rejimini bilgan holda uni sug'orish rejimi bilan solishtiriladi. Buning uchun $Q= f(t)$ grafiklari chiziladi va grafiklarni ustma-ust qo'yish suv manbasining suv sarfini , sug'orish uchun kerak suv miqdorini aniqlash imkonini beradi.

Agar suv iste'moli suv manbasining hisobiy rejim grafigida yotishi "$Q_1$" ko'rinishda bo'lsa, unda sug'orish manbasining suv rejimini boshqarishning keragi yo'q.

Agar suv iste'moli suv manbasining hisobiy rejim grafigida yotishi "$Q_2$" ko'rinishda bo'lsa, ya'ni daryo *gidrografigi* $Q= f(t)$ sug'orish ta'minot chizig'I bilan mos kelmasa – ma'lum $t_0$ vaqt davomida ma'lum bir tadbirlar qo'llanilishi kerak bo'ladi. Bu tadbirlar suv manbasining suv sarflari bilan sug'orish suv sarfi rejimlarini bir biriga moslashdan iborat bo'ladi. Bu tadbirlar quyidagilar:

1. Suv omborlarini qurish (suv manbasining suv miqdorini ma'lum vaqt davomida boshqarishga qaratilgan tadbir).
2. Sug'orish maydonlarining ko'lami va gidromodul qiymatlarini o'zgartirish.
3. Sug'orish jarayonini mukammallashtirish (sug'orish tarmog'ining FIK qiymatini oshirish, sug'orish texnikasini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlar.

Suv omborlarini qurish bazida $Q_r$> Q ba'zida $Q_r$ > Q holatlarida amalga oshiriladi.

Agar $V_r$ har doim (yillik oqim hajmi bo'yicha) $V_\omega$ dan katta bo'lsa ($V_r > V_\omega$) suv manbasining suv miqdori mavsumiy boshqariladi, ya'ni sun'iy hosil qilinadigan suv omborning hajmi $V_{res} = (0{,}2 - 0{,}7) \cdot V_r$ hajmda loyihalanadi.

Agar $V_r > V_\omega$ yoki $V_r < V_\omega$ bo'lganda suniy hosil qilinadigan suv omborining hajmi $V_{res} = (1{,}2 - 1{,}5) \cdot V_r$ qilib loyihalanadi.

### *1.3 Yer osti suvlari bilan sug'orish*

Yer osti suv manbalari sug'orish maydoniga yaqin bo'lganida juda arzon va qulay manbalaridan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham chet davlatlarda bunday manbadan keng foydalanishadi. Jumladan, AQSh da 40% sug'orish maydoni yer osti suv manbasidan sug'orilsa, XXRda 33%, Hindistonda 30%, O'zbekistonda esa rasmiy ma'lumotlar bo'yicha 5-6% ni tashkil etadi.

Bu manbadan AQSh 2500 $m^3/s$ suv sarfini olsa, bu ko'rsatkich Yaponiyada 900 $m^3/s$ ni, Eronda 830 $m^3/s$ ni, Ukrainada100 $m^3/s$ ni, O'zbekistonda esa 50 $m^3/s$ ni tashkil etadi.

Mavjud yer osti suvlari suv ta'minotida ishlatilishi mumkinligi jihatidan quyidagi turlarga bo'linadi:

- ***tuproq qatlami suvlari*** – dastlabki suv o'tkazmaydigan yoki suvni qiyin o'tkazuvchi qatlamlarda tutib qolinadi; masalan: loy, qalin soz tuproq va x.k. Bu suvlar yog'ingarchilik va yer usti suvlarining sizib kirishi hisobiga paydo bo'lib, ichimlik maqsadida foydalanish uchun yaramaydi. Tarkibida ko'p miqdorda organiq ifloslovchi moddalar bo'lib, sanitar jihatidan talabga javob bermaydi.
- ***grunt suvlari*** – tuproq osti suvlari. Tuproq qatlami suvlariga nisbatan chuqurroq joylashadi va suv o'tkazmaydigan qatlam ustida oqim yoki havza hosil qilishi mumkin. Sifati bo'yicha ayrim hollarda ichimlik maqsadlari uchun ham yaroqli bo'ladi.
- ***qatlamlararo suvlar (artezian)*** – yuqoridagi suvlardan farqlanib, ikki suv o'tkazmaydigan qatlam orasida joylashadi va bu qatlamni to'la egallab, ko'pincha bosimga ham ega bo'ladi. Bu suvlarning harakati tutash idishlar qonuniga bo'ysunadi. Agar ular sho'r bo'lmasa sifati bo'yicha suv ta'minotining eng ishonchli manbasi hisoblanadi.

Yer osti suvlari quyidagi inshootlar yordamida qazib olinishi mumkin:

1. burg'u quduqlari – artezian quduqlar;
2. shaxtali quduqlar;

3. gorizontal suv olish inshootlari;
4. nursimon suv olish inshootlari;
5. kaptaj (buloq suvlarni yig'ish) inshootlari.

Suv manbalarining ko'rinishiga qarab (buloq, sizot va artezian suv manbalari), suv yer ustiga turli moslamalar yordamida chiqariladi.




*1-rasm. Yer osti suvlarning joylashuv sxemalari*

Buloq manbalarida buloqlarni koptaj qilish — ko'zini ochish, so'ngra bir necha buloq (B)ning suvlarini birsuv yig'ish havzasi (SYH)ga to'plab, sug'orish maydoniga uzatish amaliyoti qo'llaniladi (2 - rasm).




*2–rasm. Buloq manbalaridan sug’orishda foydalanish sxemasi.*

Sizot suv manbalarida esa shaxta quduqlari, skvajinalar va korizlar qo’llaniladi. Shaxta quduqlari diametri 1-1,5 m bo’lgan quduq ko’rinishida bo’lib, quduq devorlari temir beton halqalar bilan yoki g’isht va toshlar bilan jihozlanadi (3-rasm).

Odatda shaxta quduqlarining chuqurligi 10-30 m, ba’zida esa 40-50 m bo’ladi.




*3-rasm.*

*Shaxta qudug'I sxemasi.*

*1-vintilatsion quvur; 2-qopqoq; 3-bosh qicm; 4-toshli qoplama; 5-gilli qulfak; 6-quduqning yyer ostki qismi; 7-suv qabul qilgich; 8-suvli qatlam; 9-shag'al qatlam; 10-quvur turi; 11-suv kirish tirqish; 12-beton xalqa.*

Quvurli quduqlar (skvajina) 20 m dan 200 m gacha chuqurlikda bo'lib, uning diametri filtr va nasos o'lchamlariga bog'liq ravishda 529-624 mm bo'ladi (3 rasm).



*4-rasm.*

*Burg'u qudug'i cxemasi:*
*1-shaxta; 2-kirish qicmi; 3-ustki qism; 4-o'rnatilgan quvur; 5-foydalanish kalonkasi; 6-frezyer; 7-suvli qatlam; 8-filtr; 9-tindirgich.*

Chuqurlari po'lat, sayozlari asbesstement quvurlar bilan jihozlanadi. Suvli qatlam qismida filtr o'rnatiladi. Filtrlar setka, qum-shag'al to'kmasi bilan jihozlanadi. Suv nasoslar yordamida ko'tariladi. Bunda shamol kuchidan ham foydalansa bo'ladi.

*Sug'orish tizimining xususiyatlari*:

**1**. *Manba debitining kichiqligi;*

**2.** *Suvga loyqa miqdorining yoqligi;*

**3.** *Suv haroratining 12° C dan past bo'lishi;*

**4.** *Suv manbasining sug'orish dalasiga juda yaqin bo'lishi;*

**5.***Sug'orish maydoning kichiqligi (odatda – 15-100).*

Tajribalarning ko'rsatishicha yer osti suvlari bilan 100-600 ga dan kam bo'lmagan maydonlarning sug'orilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning

uchun esa bir guruh suv olish inshootlarning sonini, joylashuv o'rnini mujassamlash kerak bo'ladi.

Yer osti suvlaridan unumliroq foydalanish va sug'orish maydonining ko'lamini oshirish uchun kunlik va mavsumiy suv havzalarini hosil qilish kerak bo'ladi.

### *1.4. Zax qochirishga bo'lgan zaruriyat.*

Zax qochirish melioratsiyasining vazifasi-tuproqning unumdorligini oshirish maqsadida unga o'simliklar uchun qulay suv rejimini va u bilan bog'liq havo, tuz hamda ozuqa rejimlarini vujudga keltirishdan iborat. Tuproqdagi ortiqcha namni qochirish faqat issiqlik va mikrobiologik rejimlarnigina yaxshilab qolmasdan, balki zaxi qochirilayotgan hududdagi yer usti havo qatlamining namlik va issiqlik sharoitlarini ham o'zgartiradi.

Ma'lumki tuproqdagi namning maqbul miqdori ekinlarning fiziologiyasi va tuproqning suv-fizikaviy xossalariga bog'liq bo'lib, bu miqdor chegaraviy dala nam sig'imining 50-80% iga to'g'ri keladi. Tuproqda nam oqtiqcha bo'lgan taqdirda uning havo va issiqlik rejimlari me'yorga muvofiq kelmaydi, bu esa ekinning rivojlanishi va hosil berishiga salbiy ta'sir etadi.

Zax qochirish–ortiqcha namiqqan yerdagi suvni ketkazish tuproq tarkibida havo miqdorini oshiradi, bu esa unda organiq moddalarning chirishi va tuproq unumdorligining oshishiga imkon byeradi.

Sug'orishning rivojlanishi natijasida yerning pastroq qatlamlaridagi sho'r suv sathi ham yuqoriga ko'tariladi va bug'lana boshlaydi. Uning tarkibidagi tuzlar esa tuproqning ustki-ildiz tarqalgan qatlamida to'planadi va uning unumdorligini pasaytiradi. Shuning uchun ham yangi sug'orish va o'zlashtirishda ularning botqoqlanishi va sho'rlanishiga yo'l qo'ymaslik, shuningdek, suv va tuz muvozanatlarining kirim qismini kamaytirishi lozim. Zax qochirish melioratsiyasining asosiy muammosi qurg'oqchil zonadagi sho'rlangan va sho'rlanishga moyil bo'lgan sug'oriladigan yerlarni yaxshilashdir. Sho'rlangan yerlarga ekilgan paxta, beda va donli ekinlar hosildorligi shu yerlarning sho'rlanish darajasiga qarab, 20-80% ga qadar kamayib ketishi aniqlangan.

O’zbekistonning sug’oriladigan yerlarining 50,2 foizi ma’lum darajada sho’rlangandir. Sho’rlangan yerlar maydoni miqdoran o’zgarib turadi, chunki u tabiiy faktorlar hamda inson faoliyatiga bog’liqdir. Hozirgi kunda (2007 y) sho’rlangan yerlar maydoni 2 mln. 145 ming ga (50,2%) ni tashkil qiladi, shu jumladan kuchsiz sho’rlangan yerlar 1330 ming ga ni, o’rtacha sho’rlangan yerlar 659 ming ga ni , kuchli sho’rlangan va sho’rxok yerlar esa 156 ming ga ni tashkil etadi.

O’zbekiston Respublikasida sug’oriladigan yerlarning sho’rlanish darajasi bo’yicha taqsimlanish darajalari 1-jadvalda keltirilgan.

Yerlarning sho’rlanishida qarshi kurashishda ilmiy jihatdan asoslangan zovurlangan maydonlarda sho’r yuvish ishlarini amalga oshirish sug’oriladigan yerlarning sho’rlanishiga qarshi kurashning eng samarali chorasi hisoblanadi.

**1-jadval** O'zbekiston Respublikasida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi bo'yicha taqsimlanish (2007 yil ko'rsatkichlari)

| Xududlar nomi | Umumiy Sug'orila-digan Maydon, Ming ga | Sho'rlan-magan | | Sho'rlangan | | Shu jumladan (jami maydonga nisbatan %) | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | | | Kuchli sho'rlangan | | O'rtacha sho'rlangan | | Kam sho'rlan-gan | |
| | | Ming ga | % | Ming ga | % | Ming ga | % | Ming ga | % | Ming ga | % |
| Respublika bo'yicha | 4275,3 | 2130,1 | 49,8 | 2144,82 | 50,2 | 156,25 | 3,7 | 659,17 | 15,4 | 1329,4 | 31,1 |
| Qoraqalpog'iston Respublikasi | 504,0 | 107,1 | 21,3 | 396,9 | 78,8 | 95,4 | 11,8 | 182,7 | 36,3 | 154,8 | 3o,7 |
| ***Viloyatlar*** | | | | | | | | | | | |
| Andijon | 265,0 | 251,6 | 94,9 | 13,92 | 5,3 | 0,0 | 0,0 | 6,52 | 2,5 | 7,4 | 2,8 |
| **Buxoro** | **274,9** | **28,9** | **10,5** | **246,0** | **89,5** | **12,7** | **4,6** | **75,7** | **27,5** | **157,6** | **57,3** |
| Jizzax | 299,5 | 53,1 | 17,7 | 246,3 | 82,2 | 6,9 | 2,3 | 86,6 | 28,9 | 152,8 | 51,0 |
| Qashqadaryo | 507,7 | 264,7 | 52,2 | 242,6 | 47,8 | 13,8 | 2,7 | 51,1 | 10,1 | 177,7 | 35,0 |
| Navoiy | 131,8 | 16,8 | 12,7 | 115,0 | 87,3 | 7,3 | 5,5 | 20,8 | 15,8 | 86,9 | 65,9 |
| Namangan | 282,6 | 256,6 | 90,8 | 26,0 | 9,2 | 0,9 | 0,3 | 7,8 | 2,8 | 17,3 | 6,1 |
| Samarqand | 378,1 | 368,2 | 97,4 | 9,94 | 2,6 | 0,03 | 0,0 | 0,41 | 0,1 | 9,50 | 2,5 |
| Surxandaryo | 325,7 | 210,4 | 64,6 | 115,27 | 35,4 | 1,57 | 0,5 | 48,0 | 14,7 | 65,7 | 20,2 |

| | | | | | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|---|
| Sirdaryo | 292,2 | 8,20 | 2,8 | 284,0 | 97,2 | 6,9 | 2,4 | 56,5 | 19,3 | 220,6 | 75,5 |
| Toshkent | 390,9 | 377,1 | 96,5 | 13,19 | 3,4 | 0,15 | 0,0 | 4,14 | 1,1 | 8,9 | 2,3 |
| Farg'ona | 359,9 | 187,4 | 52,1 | 172,2 | 47,9 | 7,6 | 2,1 | 40,1 | 11,1 | 124,5 | 34,6 |
| Xorazm | 263,4 | 0,0 | 0,0 | 263,5 | 100,0 | 39,0 | 14,8 | 78,8 | 29,9 | 145,7 | 55,3 |

Kelajakda kimyo sanoati va kimyoviy melioratsiyaning rivojlanishi natijasida tuproqdagi zararli tuzlarning foydali tuzlarga aylantirilishi extimoldan uzoq emas; u paytda har qanday zovur sug'orish sonini kamaytirish va o'tloq tuproq hosil bo'lishi jarayonini vujudga keltirish maqsadida faqat sizot suvlari sathini rostlab turish funksiyasinigina bajaradigan bo'ladi.

Arid zonada zax qochirish melioratsiyasi deganda faqat zax yyerlar zaxinigina ketkazish emas, balki tuproqniqning faol qatlamiga zararli tuzlarni zovurlar vositasida yuvish yo'li bilan butunlay yo'qotish va mineralashgan sizot suv suv sathini quritish meyoridan pastga tushurib yuborish ham tushunilishi kerak.

Melioratsiyaning hozirgi rivojlanishi va unung eng muhim muammolari yetarli darajada hal qilish uchun ilmiy tatqiqotlar takomilashtirish va shu tatqiqotlarni materialarni geofizika, kimyo, mexaniqa va matematika singari birbiriga yaqin fanlar ishtirokida ishlab chiqish talab etiladi. Amalda ko'pincha, ilmiy asosda o'rganish va loyhalash ishlarning ishlab chiqishdan ortada qolishi seziladi. Dalada olib boriladigan tatqiqotlarda geofizika muamolardan va loyhalashda kompyutyer texnikasidan foydalanish hisoblarning ishonchli bo'lishini, ishlab chiqarish talablarning o'z vaqtida qondirilishini taminlaydi hamda voriantli loyihalash uchun imkoniyat tugdiradi, bu esa eng yaxshi texnik-iqtisodiy ko'rsatgichlarga ega bo'lgan loyxani qabul qilish va uni amalga oshirish imkonini beradi.

Suv rejimini aniqlashning matematik usullari, obikor dexqonchilikdagi tatqiqotlarning qo'laniladigan radiometrik usullar va kompyutyer texnikasi vositalari tobora keng qo'lanilmoqda.

Bularning hammasi yerlarning holatini yaxshilashdagi muxim muamolarni halqilish imkonini beradigan yangi progresiv texnikaning melioratsiya soxasiga jiddiy suratga kirib kelayotganidan dalolat beradi.

*1.5. Qishloq xo'jalik ekinlarining suv rejimiga talabi.*

Qishloq xo'jalik ekinlardan barqaror hosil olish uchun o'simlik hayoti zarur bo'lgan barcha omillarni (havo, issiqlik, yorug'lik, ozuqa modular, tuproq namligi) ma'lum optimal mujassimasi bo'lishi kerak. Fotosintez jarayoni hosil bo'lishi uchun: tuproq ustki qatlamida atmosferaning issiqlik energiyasi (bu o'simlik bargiga uning tomirlardan so'rilgan suvni bug'ga aylantirishga xizmat qiladi) yerni ustki qatlamida suv almanishinuvi (bu xolat o'simlik hasil qilgan bug'ni havoga ko'taradi) taminlangan bo'lishi kerak.

Ortiqcha namiqqan maydonlarda quyosh nurlarining qanchalik energiyasi sarflanmasin, madaniy ekinlar o'simlik ildiz qatlamidagi noqulay suv rejimi uchun kerakli hosildorlikka yerishib bo'lmaydi.

Tuproq tarkibidagi ortiqcha namlik undagi havo yetishmovchiligiga, ayerob jarayonlarning yomon rivojlanishiga, o'simlikning oziqlanish rejimining buzilishiga va tuproqning fizikaviy va kimyoviy xossalarining yomonlashuviga sabab bo'ladi (tuproqqa ishlov byerish juda qiyinlashadi). Ortiqcha namiqqan yerlar yuqori issiqlik sig'imiga va issiqlik o'tkazuvchanlikka ega bo'lib, bahorda sekin isiydi, kuzda esa juda tez sovuydi, bu esa o'simlikning o'sish davrining qisqarishiga sabab bo'ladi. Gil tuproqlar esa, ortiqcha namiqqanda shishadi va uning suv o'tkazuvchanligi keskin kamayadi.

Ortiqcha namiqqan yerlarda havoning yetishmasligi bilan bir qatorda o'simliklarning mineral oziqlanish jarayoni keskin buziladi, chunki aerob mikroorganizmlar (chirindi qiladigan baktyeriyalar) yo'qolib boradi. Aerob mikroorganizmlar organic qoldiqlar va o'g'itlarning chirishini ta'minlab beruvchi asosiy manba hisoblanadi.

O'simlik ildiz qatlamining yaxshi rivojlanishi uchun tuproqda kislorod bo'lishi shart, buning uchun esa ildiz qatlam tuprog'I atmosfera bilan gaz almashinuvini ta'minlashi uchun havo o'tkazuvchan bo'lishi kerak.

Tuproqning o'simlik o'sadigan faol qatlamida ma'lum miqdorda havo va uning tarkibida kislorod va karbonat angidrid gazi bo'lish kerak. Havo miqdorining hajmi 20-21% bunda karbonat angidrid gazi 2-3% dan ortiq, kislorod miqdori 15% dank

am bo'lmasligi maqsadga muvofiqdir. Bu shart o'simlik ildiz qatlamidagi namlikning eng ko'p miqdorini belgilaydi.

**2-jadval.**

**O'simlik ildiz qatlamidagi maqbul havo va namlik miqdorlari % hisobida**

| ***O'simlikning turi*** | ***Havo*** | ***Namlik*** | |
|---|---|---|---|
| | | ***Eng ko'p*** | ***Eng kam*** |
| O't o'simliklar | 15-20 | 70-85 | 50-60 |
| Boshoqli o'simliklar | 20-30 | 70-80 | 40-45 |
| Ildiz mevali o'simliklar | 35-40 | 60-65 | 40-45 |

O'simliklarni yetishtirishda eng maqbul namlik miqdori muxim o'rin tutadi. Eng maqbul namlik o'simlikni rivojlanish fazalariga faol qatlam qalindligiga qarab belgilanadi. Bu namlik qiymatini saqlash avvalo o'simlikni suv istemoliga, yog'in miqdoriga, suniy sug'orish qatlamiga va sizot suvlarning kapillyarlar orqali faol qatlam tarkibiga kelib qo'shilish qiymatlariga bog'liq. Namlikning kamayishi o'simlik suv istemolining kamayishiga olib keladi. Shularni hisobga olgan holda ko'pgina qishloq xo'jalik ekinlarini yetishtirishga zax qochirish ishlari qo'lanilayotgan maydonlar tuprog'ining eng maqbul namligi g'ovaklikning 40-80% ini yoki chegaraviy dala nam sig'imining 0,6-1 qismini tashkil etishi kerak.

*1.6. Artezian skvajinalardan foydalanish.*

Mening Bitiruv malakaviy ishimning mavzusi “Artezian skvajina nasoslarini boshqarish va avtomatlashtirish masalalari”. Bitiruv malakaviy ish mavzusini chuqur o’rganish maqsadida artezian quduqlar ishi, skvajinali nasoslar, ularning ishlash prinsipi va ularni avtomatlashtirish yo’llarini izlay boshladim.

Artezian qudug‘i - artezian suvlari chiqadigan burg‘i qudug‘i. Yer osti suvlaridan xalq xo‘jaligida foydalanish maqsadlarida qaziladi. Artezian qudug‘i artezian suvli qatlamning joylashish chuqurligiga qarab ayrim hollarda 3000 — 5000 m ga yetishi mumkin. Ichimlik suv olish, yaylovlarni suv bilan ta’minlash, yerlarni sug’orishda asosan 500 – 1000 m gacha chuqurlikdagi suvlar o‘zlashtirilgan. Chuqur Artezian qudug‘i mineral, termal yoki sanoatda xom ashyo sifatida ishlatiladigan artezian suvlarini chiqarish uchun quriladi. Artezian qudug‘idan suv sarfiga qarab turli usullarda chiqariladi; yo o‘zi otilib chiqadi yoki ATN, NA, VP, ETSV va boshqa markali turli artezian nasoslaridan foydalaniladi. Artezian qudug‘ining asosiy elementlari: maxsus shurfga sement qorishmasi bilan mustahkam o‘rnatilgan konduktor-yo‘naltiruvchi quvur; suv to‘plovchi quvurlar; tindirgich. Artezian qudug‘i og‘zida suv sathini aniqlaydigan va tarkibini tekshirish uchun namuna oladigan, suv sarfini o‘lchaydigan va tartibga soladigan moslamalar o‘rnatiladi. Sug’orishda foydalaniladigan artezian qudug‘ining suv berishi 50, ba’zan esa 100 l/s gacha yetadi. O‘rta Osiyoda 25 mingdan ortiq Artezian qudug‘i qazilgan. Uning 5000 ga yaqinidan suv o‘zi otilib chiqadi. O‘zbekistonda 10046 artezian va drenaj quduqlari bor .

Artezian suv osti qatlamlari ikki suvga chidamli qatlamlar orasida yotadi va ular yerlarning ifloslanishidan ishonchli himoyalangan. Yer osti suvlaridan farqli o'laroq, ular ko'pincha uzoq masofa bor - bir necha kilometr, hatto o'nlab va yuzlab kilometrlarda. Quduq ochilganda, artezian suvining darajasi har doim suv qatlamining suvga chidamli tomidan juda yuqori bo'lib, ba'zida quyosh suvining o'zi quyilgan quduqdan chiqadi. Artezian suvlari oziqlanadigan joylarda ular erkin sirt yoki yer osti suvlari bilan birlashtirilgan xarakterga ega bo'ladi. Artezian qudug'ining chuqurligi 50 m dan ortiq, ko'pincha 80 m. Artezian qudug'idan

olingan suv mukammal sifatga ega. Yer yuzasidagi ifloslanish ohaktosh qatlamiga kirish imkoniga ega emas, shuning uchun suvning birgina kamligi temir va minerallarning yuqori miqdori bo'lishi mumkin. Shuning uchun, yer osti suvlariga quyilgan kichiqroq quduqlarda bo'lgani kabi, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlatish uchun suvni tozalash kerak bo'ladi. Artezian qudug'i suvning amaldagi tugatilmagan manbai. Tezda shirin suv bilan to'ldiriladi, u quduqqa soatiga 5 kub metrgacha quyilgan quduqlarga qaraganda ko'proq suvni sarflashi mumkin. Artezian qudug'ining hayoti ham kichiq quduqlar hayotidan ancha uzoqroq. Artezian qudug'i doimiy (mavsumiy emas) amaliyot bilan o'nlab yillar davomida davom etadi.

Artezian qudug'ining asosiy kamchiliklari uning narxi hisoblanadi.

Birinchidan, uning chuqurligi ancha katta va o'zidan burg'ulash yuqori xarajatlarni talab qiladi, artezian quduqlarini burg'ulash bir necha kun davom etadi. Ikkinchidan, ko'proq qopqoq kerak bo'ladi.

“Amu-Buxoro” irrigatsiya tizimlari havza boshqarmasi qoshidagi meliorativ ekspedistiyasi Buxoro tumani bo’limi tumanda sug’oriladigan yer maydonlarning meliorativ holatini nazorat qilish, o’rganish va shular asosida sug’oriladigan yerlar unumdorligini oshirish maqsadida, meliorativ chora - tadbirlar ishlab chiqish bilan bir qatorda shu tadbirlarni amalga oshirilishini nazorat qilish hamda uni keltiradigan iqtisodiy samaradorligini tahlil qilish maqsadida tuzilgan yagona bo’limdir. Shundan kelib chiqib, bo’lim tumandagi 30257 gektardan oshiqroq sug’oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini doimiy nazorat qilib, kuzatuvlar asosida meliorativ nuqtai nazardan o’zgarib turadigan vaziyatlarni baholaydi hamda kutiladigan o’zgarishlarni prognoz qilib, shular asosida sug’oriladigan yer maydonlarining meliorativ holatini yaxshilash yo’li bilan ulardan olinadigan qishloq xo’jaligi mahsulotlarining hosildorligini oshirish tadbirlarini ishlab chiqadi va ularni amalda bajarilishini nazorat qiladi. Amalga oshirilgan kapital qurilish tadbirlarini yerlarni meliorativ holatini yaxshilashga qay tarzda ta’sir ko’rsatishini o’rganadi. Bulardan tashqari umumiy uzunligi 831.194 km bo’lgan, shundan 10,1 km magistral kollektorlar va 205.24 km uzunlikdagi

Davlat hisobida turadigan xo'jaliklararo zovurlari va 15 km xo'jaliklararo yopiq zovurlar hamda 9.316 km uzunlikdagi yopiq-yotiq drenaj zovurlar, uzunligi 498.044 km bo'lgan SIUlar hisobidagi ichki zovur-drenaj tarmoqlarini va 93.494 km uzunlikdagi xo'jalik ichki yopiq-yotiq zovurlarni ekspluatastiya qilishda, ularni texnik holatini soz saqlash uchun yerdan foydalanuvchilarga texnikaviy yordam ko'rsatib, tegishli chora ko'rish uchun tavsiyalar byerib boradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil PQ-1958 sonli "2013-2017 yillarda sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yanada yaxshilash va suv resurslardan oqilona foydalanish" chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori ijrosini ta'minlash bo'yicha tumanda 2015 yilda "Rabotiqalmoq" tizimidan-115.27 km uzunlikdagi kollektor tarmoqlarini ta'mirlash-tiklash tadbirlari belgilangan bo'lib, 2015 yil jami amalga oshirilgan meliorativ tadbirlarga-804.67 mln.so'm sarflandi.

Tuman meliorastiya bo'limida amalga oshirilayotgan ishlarning asosi hisoblangan, yerlarning meliorativ holatini nazorat qilish asosan yer osti sizot va bosimli suvlarning sathini o'lchab borishdan, ularning mineral tarkibini aniqlashdan, sug'orishda foydalaniladigan oqova suvlarining sifatini tekshirish hamda sug'oriladigan yerlardan chiqib ketayotgan sizot suvlarining sho'rlik darajasini aniqlashdan, shuningdek yerlarning sho'rlanish darajasini belgilash, sho'r yuvish samaradorligini aniqlash kabi ishlar asosida tuzilgan bo'lib, shularni bajarilish sifatiga uzviy bog'liqdir.

Buxoro tumandagi yer maydonlari 15 ta SIU lar xizmat ko'rsatadi. Asosan paxta va don yetishtirish, dehqonchilik va chorvachilik ham yetakchi o'rin egallaydi. Tumanning sug'oriladigan maydoni 30257 gektarni tashkil qiladi.

Tumanning iqlim sharoiti kontinental bo'lib, havo harorati yil davomida keskin o'zgarib turishi bilan ajralib turadi, yozi quruq issiq, qish fasli esa qisqa, qattiq sovuq kunlar deyarli kam bo'ladi, yog'in-sochin aytarli ko'p emas. Yil davomida bo'ladigan yog'ingarchiliklarning qariyb 60 foizi yilning yanvar oyi va aprel oylarida tugri keladi. Tumanda iqlimning asosiy faktori hisoblangan shamol aytarli butun yil mobaynida esib turadi, shamol yo'nalishi asosan janub va janubiy

sharq tomonga bo'ladi. Ayrim hollarda shamolning tezligi sekundiga 18-20 metrni tashkil qiladi. Buxoro tumani sharoitida iqlimning yuqorida qayd etilgan xususiyatlari ya'ni havoning quruq kelishi va yoz oylarida juda issiq bo'lishi, yog'in-sochinni juda kam bo'lishi, yer yuzasiga yaqin joylashgan tarkibida mineral tuzlari ko'p bo'lgan yer osti suvlarining bug'lanib ketishini birmuncha tezlashtiradi, transpirastiyaga sarflanadigan suv miqdori ko'payadi, bu esa o'z navbatida sho'rlanishga moyil bo'lgan yerlarning qayta sho'rlanishiga olib keladi.

Buxoro tumanida qishloq xo'jaligida yetakchi soha dehqonchilik bo'lib, shu bilan birga chorvachilik hamda yaylovlarda qorako'lchilik bilan ham shug'ullaniladi. Dehqonchilikda asosiy ekin paxta va g'alla hisoblanib, ozuqabop ekinlar o'stirish, bog'-chorbog'larni bunyod qilishga ham alohida e'tibor berilgan.

O'tgan hisobot yilida tuman bo'yicha 11170 gektar maydonga paxta va 5842 gektar maydonga g'alla ekildi. Tuman bo'yicha dehqonchilikda paxtadan olingan yalpi hosil 39421 tonna bo'lib, hosildorlik gektariga 35.3 stentnyerni, g'alladan olingan yalpi hosil 35995tonnani, xar bir gektariga esa 61.6 stentnyerni tashkil qildi. Tuman sug'oriladigan yer maydonlarining gidrogeologik meliorativ sharoiti o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, viloyatning janubiy tumanlari singari bir muncha murakkab hisoblanadi. Buxoro tumanida gidrogeologik meliorativ sharoit, asosan yer osti sizot suvlari gidro hamda gidrokimyoviy rejimiga bog'liq bo'lib, sug'oriladigan yer maydonlari "Zarafshon" daryosining quyi qismida joylashganligi sababli, murakkab hisoblanadi. Tumanning ayniqsa, o'rta va quyi qismlarida sizot suvlarining yer osti harakati sekinligi va uni yer yuzasiga yaqin joylashganligi sababli meliorativ vaziyat o'ta og'ir hisoblanadi. Havo haroratining yuqori bo'lishi va issiq kunlarning ko'p bo'lishi yer yuzasiga yaqin joylashgan sizot suvlarini evakotranspirastiyaga ko'p sarflanishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida aerastiya qismida tuz miqdorini keskin oshishiga sabab bo'ladi. Oqibatda sug'oriladigan maydonlarda sho'rlanish qayta tiklanadi. Gidrometeo xizmatining kuzatuvlari bo'yicha tuman hududida bug'lanishga sarflangan suvning bor yo'g'i 10 foiz qismi atmosfera yog'in - sochinlarini tashkil etadi, xolos. Shu sababli dehqonchilikda qishloq xo'jaligi ekinlaridan mo'l - ko'l hosil

etishtirishning asosiy omillaridan biri sug'oriladigan yerlarning unumdorligini oshirish, yerlarning meliorativ holatini yomonlashuvini oldini olishdan iboratdir.

Sug'oriladigan maydonlarning meliorativ holatidan kelib chiqib, asosiy meliorativ tadbirlar amalda holati tabiiy yomon yerlarda, yuza nishabligi kichiq, tabiiy drenajlik xususiyati past va yer osti sizot suvlarining harakati sekin bo'lgan yerlarda birinchi navbatda qo'llaniladi. Tumanda ekin maydonlarini meliorativ holatini barqaror saqlash uchun 831.194 km uzunlikda zovur tarmoqlari mavjud bo'lib, har bir gektar maydondagi uning o'rtacha solishtirma uzunligi 29.33 p.metrni tashkil etadi.

Meliorativ kadastr natijalarini tahlili bo'yicha 2017 yilning 1 noyabr holatida mavjud 30257 gektar sug'oriladigan yer maydonlarining 3460 gektari yaxshi, 25340 ming gektari qoniqarli va 1450 gektari qoniqarsiz maydonni tashkil etadi.

